



[v] tovushi – undosh tovush.
Talaffuzida pastki lab yuqori tishga yaqinlashadi. Havo tebranib tovushni hosil qiladi.



25

Men borman vulqonda ham,
Vafo va vijdonda ham.
Vatan, volida va vaqt
So'zlarini boshlash baxt.



	a	o	i	u	o'	e
v	va	vo	vi	vu	vo'	ve

Va	bu-va	var-rak	va-si-yat	Va-tan
Vi	bu-vi	vi-do	vo-li-da	Vi-so-la
Vo	sa-vol	vo-ha	vi-lo-yat	Vo-ris

To-za qi-lib ba-dan-ni,
Yor-dam qi-lar u do-im.
Se-mir-ti-rib u tan-ni,
O'-zi o-zar mu-lo-yim.



Munavvar musavvir

Mu-nav-var bu-vi-si-dan: “Mu-sav-vir kim?” – deb so’-ra-di. Bu-vi-si: “Mu-sav-vir – ras-som”, – deb ayt-di. Mu-nav-var kat-ta bo'l-sam bu-yuk mu-sav-vir bo’-la-man, deb ni-yat qil-di.